

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNALI

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245



Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vilniaus Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 244-sahifa.
2026-yil, sentabr.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

КУРПАЯНИДИ КОНСТАНТИН ИВАНОВИЧ

Стратегии цифровой трансформации в Европейском союзе и потенциал институционального трансфера Французского опыта в Узбекистан.....11

ERGASHEV RUSTAM RAJABOVICH

Ilmiy ishlanmalar asosida Spin-off korxonalarini tashkil etish va rivojlantirishning bosqichli boshqaruv modeli.....25

ABDURAXMANOVA MUQADDAS TOXTASINOVNA

Temir yo'l transporti korxonalarida ekologik-iqtisodiy samaradorlikni oshirishning ilg'or mexanizmlari.....34

ABDULLAYEV ILYOS AXMADOVICH, JABBOROV JAMOLIDDIN MUXAMMADJON O'G'LI

Surxondaryo viloyatida demografik jarayonlarning statistik tahlili.....44

XASANOV SANJARBEK ABDUMANNOBOVICH

Sanoat korxonalarida raqamli transformatsiya darajasini baholash uslubiyoti ("Farg'onaazot" AJ misolida).....50

ABDURAZAKOVA NARGIZA RIXSIBAYEVNA

Aksiyadorlik jamiyatlarida xususiy kapital rentabelligiga ta'sir etuvchi omillar: O'zbekistonning uchta aksiyadorlik jamiyati misolida panel tahlil.....57

SULTANOVA ZUXRA JAKSILIKOVNA

Qaraqalpaqstan Respublikasida region ekonomikasini rivojlantirishda IT park xizmatini amalga oshirish masalalari ham paydalanilmagan mumkinliklari.....69

ERGASHEV G'YOS BAXROM O'G'LI

Mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish zarurati.....76

URMANOVA UMIDA XAKIMDJANOVNA

Sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish holati va rivojlanish tendensiyalari.....87

SHAMSIDDINOVA DILNOZA SHAVKAT QIZI

O'zbekiston chirm poyabzal korxonalarida milliy brend qiymatini oshirishning marketing mexanizmlarini takomillashtirish.....97

MUSAYEV OZODJON SHAVKAT O'G'LI

Mehnat resurslarini boshqarishning zamonaviy usullari va ularning iqtisodiy samaradorligi.....106

XALIKCHAYEVA SADOKAT

Qum-shag'al mahsulotlarini realizatsiya qilishda soliq bazasini aniqlash metodologiyasi "Minimal narx" mexanizmining tatbiq chegaralarini takomillashtirish masalalari.....113

XUSANOV SHUXRAT BURXANOVICH

Moliyaviy hisobotlarni qalbakiylashtirish xavfi ko'rsatkichlari tizimini ishlab chiqish.....122





QUDRATOV ALISHER ALIJANOVICH, QODIRQULOVA SEVINCH TOIR QIZI

Qishloq xo'jaligida dukkakli mahsulotlarni yetishtirishda davlatning iqtisodiy tutgan o'rni.....133

IKROMOVA IRODA

Transport logistika korxonalari va koridorlari samaradorligini oshirishda milliy logistikani boshqarish markazi platformasi.....139

AXMADOVA IRODA MUZAFFAR KIZI

The economic role of professional tour guides in enhancing the quality of ecotourism services.....153

SODIQOVA NIGORA TURAYEVNA

Suv resurslari cheklangan sharoitda hududiy ixtisoslashuvni takomillashtirish bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan O'zbekiston sharoitida foydalanish.....165

АСРОРОВА МАВЛУДА АБДУШУКУРОВА

Кадровый потенциал в системе государственной научно-инновационной политики: сравнительный анализ опыта зарубежных стран.....175

KULIBOYEV AZAMAT SHONAZAROVICH

Davlat tibbiyot tashkilotlarida tibbiy xizmatlar kalkulyatsiyasini shakllantirish va xarajatlar hisobining uslubiy muammolari.....193

UMAROV JAVOHIR BAHODIR O'G'LI

Tovar operatsiyalari hisobini avtomatlashtirishda integratsiyalashgan axborot tizimlarining roli: jahon tajribasi misolida.....204

KADIROVA LAZOKAT YUREVNA

Davlat moliyaviy nazorati jarayonlarini sun'iy intellekt yordamida riskka yo'naltirilgan raqamli nazorat modeli asosida takomillashtirish.....212

BAXSHULLOYEV FERUZBEK

The economics of digital water management: a critical review.....226

TO'XTAYEV UMIDJON SHUHRAT O'G'LI

Xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish iqtisodiy mexanizmi amal qilish tamoyillari.....236

RAXIMOV ANVAR NORIMOVICH, MIRZAYOROVA HURIYAT

UBAYDULLAYEVNA

Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi tadbirkorligi samaradorligidagi hududiy tafovutlarni baholash.....244





QASHQADARYO VILOYATIDA QISHLOQ XO'JALIGI TADBIRKORLIGI SAMARADORLIGIDAGI HUDUDIIY TAFOVUTLARNI BAHOLASH

RAXIMOV ANVAR NORIMOVICH

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti "Iqtisodiyot" kafedrası mudiri, DSc

E-mail: sanjar.8548@mail.ru

ORCID: 0009-0009-2855-4084

MIRZAYOROVA HURIYAT UBAYDULLAYEVNA

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti tadqiqotchisi

E-mail: hmirzayorova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi tadbirkorligi samaradorligining hududiy tafovutlari tahlil qilingan. Tadqiqotda viloyat tumanlarining tabiiy-iqtisodiy salohiyati, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmi, yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligi, tadbirkorlik subyektlari faoliyati hamda mehnat resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlari o'rganilgan. Hududlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash maqsadida iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslash, guruhlash va integral baholash usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijalari Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi tadbirkorligi samaradorligi hududlar kesimida bir xil emasligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo viloyati, qishloq xo'jaligi, tadbirkorlik, tadbirkorlik samaradorligi, hududiy tafovutlar, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, yer resurslari, suv resurslari, fermer xo'jaliklari, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация. В статье проведена оценка территориальных различий эффективности сельскохозяйственного предпринимательства в Кашкадарьинской области. В ходе исследования рассмотрены природно-экономический потенциал районов области, объемы сельскохозяйственного производства, эффективность использования земельных и водных ресурсов, деятельность субъектов предпринимательства, а также использование трудовых ресурсов. Для выявления различий между территориями использованы методы экономико-статистического анализа, сравнения, группировки и интегральной оценки. Результаты исследования показывают, что эффективность сельскохозяйственного предпринимательства по районам Кашкадарьинской области существенно различается.

Ключевые слова: Кашкадарьинская область, сельское хозяйство, предпринимательство, эффективность предпринимательства, территориальные различия, сельскохозяйственное производство, земельные ресурсы, водные ресурсы, фермерские хозяйства, экономическая эффективность.

Abstract. This article assesses territorial differences in the efficiency of agricultural entrepreneurship in Kashkadarya Region. The study examines the natural and economic potential of the districts, agricultural production volumes, the efficiency of land and water resource utilization, the performance of agricultural business entities, and the use of labor resources. Economic and statistical analysis, comparative analysis, grouping, and integral assessment methods were applied to identify differences between the districts. The findings demonstrate significant territorial disparities in the efficiency of agricultural entrepreneurship across Kashkadarya Region.

Keywords: Kashkadarya Region, agriculture, entrepreneurship, entrepreneurial efficiency, territorial differences, agricultural production, land resources, water resources, farming enterprises, economic efficiency.

KIRISH

Qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri bo'lib, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, qayta ishlash sanoati uchun xomashyo yetkazib berish, bandlikni oshirish va hududlarning iqtisodiy





rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Qashqadaryo viloyati O'zbekistonning yirik qishloq xo'jaligi hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda qishloq xo'jaligining turli yo'nalishlari, jumladan, g'allachilik, paxtachilik, chorvachilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik va boshqa tarmoqlar rivojlangan. Shu bilan birga, viloyat hududlarining tabiiy-iqlim sharoitlari, suv bilan ta'minlanganlik darajasi, yer resurslarining sifati, infratuzilma va bozor imkoniyatlari bir xil emas. Mazkur tafovutlar qishloq xo'jaligi tadbirkorligi samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, sug'oriladigan yerlar ulushi yuqori bo'lgan hududlarda ekinlar hosildorligi va ishlab chiqarish hajmi yuqoriroq bo'lishi mumkin. Aksincha, suv resurslari cheklangan hududlarda ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi va hosildorlikning pasayishi tadbirkorlik samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish, hududiy tafovutlarni aniqlash hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va realizatsiya qilish jarayonlarini takomillashtirish masalalari so'nggi yillarda mamlakatimiz iqtisodiy tadqiqotlarida muhim yo'nalishlardan biri sifatida shakllanmoqda. Ayniqsa, qishloq xo'jaligida zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, logistika xizmatlarini rivojlantirish hamda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. T.Abdirashidov tadqiqotlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari samaradorligiga logistika xizmatlarining ta'siri tahlil qilinib, mahsulotlarni ishlab chiqaruvchidan iste'molchigacha yetkazib berish jarayonini takomillashtirish qishloq xo'jaligi tadbirkorligi samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida baholangan. Muallif logistika infratuzilmasining rivojlanganligi mahsulot tannarxini kamaytirish va bozor imkoniyatlaridan samarali foydalanishga xizmat qilishini asoslagan[1]. N.Nurxonov va B.Xalxadjayev tadqiqotlarida Qashqadaryo viloyati misolida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish jarayoni iqtisodiy-statistik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi, hududiy xususiyatlar va iqtisodiy ko'rsatkichlarni statistik usullar yordamida baholash masalalariga e'tibor qaratilgan. Mazkur yondashuv Qashqadaryo viloyati tumanlari kesimida qishloq xo'jaligi tadbirkorligi samaradorligidagi farqlarni aniqlash uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi[2]. S.Bazarov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda fermer xo'jaliklari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion agrotexnologiyalarning o'rni Qashqadaryo viloyati misolida o'rganilgan. Tadqiqot natijalari zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va resurslardan samarali foydalanish fermer xo'jaliklari iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi[3]. M.T.Abdullayeva va S.A.Maxmadiyorova tadqiqotlarida yer





uchastkalaridan ijara asosida foydalanishning agrar sohadagi samaradorlikka ta'siri O'zbekiston tajribasi asosida tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotda yer resurslaridan foydalanish samaradorligi, yer munosabatlari va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy natijalari o'rtasidagi bog'liqlikka e'tibor qaratilgan. Bu esa hududlar kesimida yer samaradorligini baholashning dolzarbligini ko'rsatadi[4]. O.A.Jabborov va A.M.Ruziyev tadqiqotlarida Qashqadaryo viloyatining sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yer maydonlari tuproqlari unumdorligi baholangan. Mazkur tadqiqot natijalari hududlarning tuproq va tabiiy resurslar bilan ta'minlanganligi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, yerlarning unumdorlik darajasini hisobga olish hududiy samaradorlikni baholashda muhim ahamiyat kasb etadi[5].

L.Xudoyorov tadqiqotlarida Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Tadqiqotda tadbirkorlik muhitining rivojlanishi, iqtisodiy sharoitlar va tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar o'rganilgan. Mazkur yondashuv qishloq xo'jaligi tadbirkorligini hududiy jihatdan baholashda tadbirkorlik muhitining rolini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.[6] Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi hamda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi tomonidan e'lon qilinayotgan statistik ma'lumotlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, hududlarning ishlab chiqarish salohiyati va qishloq xo'jaligining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu statistik ma'lumotlardan Qashqadaryo viloyati tumanlari o'rtasidagi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va tadbirkorlik samaradorligi tafovutlarini aniqlashda foydalanish mumkin. O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati doirasida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, investitsiyalarni jalb qilish va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Mazkur yo'nalishlar qishloq xo'jaligi tadbirkorligi samaradorligini oshirishning institutsional va iqtisodiy asoslarini shakllantiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini qishloq xo'jaligi tadbirkorligi samaradorligini hududiy jihatdan baholashga imkon beruvchi iqtisodiy-statistik yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqotda Qashqadaryo viloyatining tumanlari asosiy hududiy birlik sifatida tanlab olinib, ularning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi iqtisodiy natijalari o'zaro taqqoslandi. Tadqiqot jarayonida statistik ma'lumotlarni guruhlash, taqqoslash, dinamik tahlil, nisbiy va o'rtacha ko'rsatkichlarni hisoblash hamda integral baholash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi tadbirkorligi samaradorligi hududlar bo'yicha tabiiy va iqtisodiy sharoitlarning farqlanishi sababli turlicha





shakllanadi. Hududning geografik joylashuvi, suv ta'minoti, yerlarning meliorativ holati, transport infratuzilmasi va bozorlar bilan aloqadorligi tadbirkorlik faoliyatining natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

1-jadval

Qashqadaryo viloyati tumanlarida qishloq xo'jaligi tadbirkorligi samaradorligini baholash ko'rsatkichlari

Hudud	Qishloq xo'jaligi mahsuloti indeksi	Yer samaradorligi	Mehnat unumdorligi	Rentabellik indeksi
Qarshi tumani	0,82	0,79	0,81	0,78
Koson tumani	0,86	0,84	0,83	0,82
Kasbi tumani	0,88	0,86	0,87	0,85
Nishon tumani	0,76	0,72	0,75	0,71
Mirishkor tumani	0,68	0,64	0,67	0,63
Chiroqchi tumani	0,73	0,70	0,72	0,69
Shahrisabz tumani	0,91	0,89	0,90	0,88
Kitob tumani	0,93	0,91	0,92	0,90

Jadvaldan ko'rinadiki, hududlar o'rtasida samaradorlik darajasida sezilarli farqlar mavjud. Namunaviy hisob-kitoblarda Kitob va Shahrisabz tumanlari yuqori samaradorlik guruhiga kiradi. Kasbi, Koson va Qarshi tumanlarida ham qishloq xo'jaligi tadbirkorligi samaradorligi nisbatan yuqori. Mirishkor, Chiroqchi va Nishon tumanlarida esa ayrim ko'rsatkichlarning pastroq ekanligi hududning tabiiy sharoiti, suv ta'minoti va infratuzilma imkoniyatlari bilan izohlanishi mumkin.

2-jadval

Hududlarning integral samaradorlik indeksleri bo'yicha guruhlanishi

Samaradorlik guruhi	Integral indeks oralig'i	Tumanlar
Yuqori	0,85–1,00	Kitob, Shahrisabz, Kasbi
O'rta	0,70–0,84	Koson, Qarshi, Nishon, Chiroqchi
Past	0,00–0,69	Mirishkor

Hududiy guruhlash qishloq xo'jaligi tadbirkorligini rivojlantirish siyosatini hududlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. Yuqori samaradorlikka ega hududlarda mavjud ishlab chiqarish salohiyatini yanada oshirish, qayta ishlash korxonalarini rivojlantirish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. O'rta guruhdagi hududlarda esa infratuzilmani yaxshilash, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, kredit va investitsiya resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish muhim hisoblanadi. Past samaradorlik guruhiga kiruvchi hududlarda esa birinchi





navbatda suv ta'minoti, yerlarning meliorativ holati, logistika va ishlab chiqarish infratuzilmasini yaxshilashga e'tibor qaratish zarur.

3-jadval

Qishloq xo'jaligi tadbirkorligi samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar

Omil	Ta'sir yo'nalishi	Ta'sir darajasi
Suv bilan ta'minlanganlik	Ijobiy	Yuqori
Yerlarning unumdorligi	Ijobiy	Yuqori
Zamonaviy texnologiyalar	Ijobiy	Yuqori
Moliyaviy resurslardan foydalanish	Ijobiy	O'rta-yuqori
Transport infratuzilmasi	Ijobiy	O'rta
Bozor infratuzilmasi	Ijobiy	O'rta-yuqori
Mehnat resurslari	Ijobiy	O'rta
Suv tanqisligi	Salbiy	Yuqori
Logistika xarajatlari	Salbiy	O'rta

Tahlil natijalari qishloq xo'jaligi tadbirkorligi samaradorligiga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri suv resurslari bilan ta'minlanganlik ekanligini ko'rsatadi. Qashqadaryo sharoitida suv resurslaridan samarali foydalanish nafaqat hosildorlikni oshirish, balki ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish uchun ham muhimdir. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, xususan, suv tejovchi sug'orish texnologiyalaridan foydalanish hududlarning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

4-jadval

Qishloq xo'jaligi tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha takliflar

Muammo	Taklif	Kutilayotgan natija
Suv resurslarining cheklanganligi	Suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish	Suv sarfini kamaytirish
Yer unumdorligining pasayishi	Meliorativ tadbirlarni kuchaytirish	Hosildorlikni oshirish
Moliyaviy resurslarning cheklanganligi	Imtiyozli kredit va moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish	Tadbirkorlik faolligini oshirish
Logistika muammolari	Qishloq hududlarida logistika markazlarini rivojlantirish	Mahsulot tannarxini kamaytirish
Qayta ishlash darajasining pastligi	Mahalliy qayta ishlash korxonalarini tashkil etish	Qo'shilgan qiymatni oshirish
Texnologik yangilanishning sustligi	Zamonaviy agrotexnikalarni joriy etish	Mehnat unumdorligini oshirish

Olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi tadbirkorligi samaradorligini faqat ishlab chiqarish hajmi bilan baholash yetarli emas. Hududda mavjud yer va suv resurslaridan qanday foydalanilayotganligi, bir birlik resurs hisobiga qancha mahsulot olinayotganligi ham muhim ahamiyatga ega. Hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish uchun barcha tumanlarga bir xil





iqtisodiy yondashuvni qo'llash o'rniga differensial hududiy siyosat olib borish maqsadga muvofiq. Ya'ni, har bir hududning tabiiy, iqtisodiy va infratuzilmaviy xususiyatlaridan kelib chiqib rivojlanish dasturlari ishlab chiqilishi kerak.

XULOSA

Tadqiqot natijalari Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi tadbirkorligi samaradorligi hududlar kesimida sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatadi. Ushbu tafovutlar, avvalo, hududlarning tabiiy-iqlim sharoitlari, suv va yer resurslari bilan ta'minlanganligi, ishlab chiqarish infratuzilmasi, bozor imkoniyatlari hamda moliyaviy resurslardan foydalanish darajasi bilan bog'liq.

Tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi: Birinchidan, qishloq xo'jaligi tadbirkorligi samaradorligini oshirishda suv resurslaridan oqilona foydalanish muhim omil hisoblanadi. Shu sababli suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish zarur.

Ikkinchidan, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish uchun tumanlarning ixtisoslashuviga mos hududiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish lozim.

Uchinchidan, qishloq xo'jaligi tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, imtiyozli kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish va investitsiyalarni jalb qilish samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini faqat yetishtirish emas, balki ularni qayta ishlash, saqlash va sotish tizimini rivojlantirish orqali hududlarda qo'shilgan qiymatni ko'paytirish mumkin.

Beshinchidan, qishloq xo'jaligi tadbirkorligi samaradorligini muntazam ravishda hududlar kesimida baholab borish va past samaradorlikka ega hududlar uchun alohida qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Umuman olganda, Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi tadbirkorligini rivojlantirishda hududlarning tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda differensial yondashuvdan foydalanish, resurslardan samarali foydalanish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish hududiy tafovutlarni kamaytirish hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining umumiy samaradorligini oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdirashidov T. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari samaradorligiga logistika xizmatlarining ta'siri tahlili. "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali, Toshkent, 2024-y - №12 - B. —.

2. Nurxonov N., Xalxadjayev B. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonini iqtisodiy-statistik tahlil qilishning zamonaviy usullari (Qashqadaryo viloyati misolida). "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali, Toshkent, 2024-y - №2 - B. —.

3. Bazarov S. Fermer xo'jaliklari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion agrotexnologiyalarning roli (Qashqadaryo viloyati





misolida). “Центральноазиатский журнал академических исследований”, 2025-y - №7 - B. 102-105.

4. Abdullayeva M.T., Maxmadiyorova S.A. Yer uchastkalarini ijara asosida foydalanishning agrar sohada samaradorlikka ta'siri: O'zbekiston tajribasi. “Agro ilm” jurnali, 2025-y.

5. Jabborov O.A., Ruziyev A.M. Qashqadaryo viloyati sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yer maydoni tuproqlari unumdorligini baholash. “O'zbekiston Zamini” jurnali, Toshkent, 2025-y - №3 - B. 52-57.

6. Xudoyorov L. Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili. “Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar”, 2025-y - №5 - B. 312-318.



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjournal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669225 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy